

---

## Navbatdagi qabul "Shodiyona" mahallasida o'tkazildi

Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, fuqarolik ishlari bo'yicha Farg'ona tumanlararo sudi raisi Ulug'bek Oripov, Majburiy ijro byurosi shahar bo'limi boshlig'i Dilshodjon Ismoilov, Xalq qabulxonasi mudiri Tavakkaljon Rahimov va hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

"Shodiyona" mahallasidagi "Monomarkaz"ning faollar zalida 150 nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. Fuqarolarning o'ttizga yaqin murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.

2023-04-05 11:01:50